

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qomitasi raisi
B.S. Hamrayevning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha statistika
organlari xodimlari va tadbirkorlik subyektlariga
MUROJAATI

Assalomu alaykum hurmatli xamkasblar hamda statistik hisobot
topshiruvchi korxona va tashkilotlar vakillari!

So'nggi yillarda aholi o'rtasida korrupsiya illatlariga nisbatan murosasiz muhitni yaratish hamda statistika organlari xodimlarining korrupsiyaviy holatlarga nisbatan murosasiz ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifa bo'lib kelmoqda.

Shu o'rinda, **Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning** "Korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga murosasiz bo'lish kundalik hayot tarzimizga aylanishi shart. Bu illatga qarshi kurashishga barcha davlat organlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, umuman, har bir fuqaro safarbar etilishi zarur" degan chaqirig'i bizning faoliyatimizga dasturamal bo'lishi lozim.

Ushbu yo'nalishning huquqiy asosini yaratish maqsadida dastlab, 2017-yil 3-yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **15 dan ortiq farmon va qarorlari** hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining bir qator qarorlari qabul qilindi.

Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlash maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi tomonidan "Sohaning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati", "Odob-axloq kodeksi", "Korrupsiya bo'yicha xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish tartibi" hamda "Korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo'lgan lavozimda ishlovchi xodimlarni umumiy va maxsus o'qitishdan o'tkazish" kabi jami 12 ta ichki idoraviy hujjatlar qabul qilindi.

Tizimda korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish maqsadida Qo'mitaning **Ishonch raqami** (+99871 203-80-00), **"Call" markazi** -1151, Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmatining +99871 203-80-00 (1450), shuningdek Milliy statistika qo'mitasi tomonidan tashkil etilgan boshqa bir qator aloqa kanallari (Agentlikning www.stat.uz rasmiy veb sayti, [@anticorrupsiyastatbot](https://www.facebook.com/uzstataxborot), <https://stat.uz/uz/haqida/korrupsiyaga-qarshi-kurashish-idoraviy-komissiyasi>) joriy etildi.

Milliy statistika qo'mitasining 2023-yil 20-iyundagi 37-son buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida, xodimlarning tashabbusi bilan korrupsiyaviy omillarga nisbatan murosasiz munosabatini bildirib, shu kunning o'zida rahbariyat nomiga bildirishnoma bilan yoki og'zaki ravishda murojaat qilganligi yuzasidan rag'batlantirish reglamenti tasdiqlandi. Ushbu buyruq ijrosini ta'minlash maqsadida Agentlikning ma'muriy binosidagi **"Namunali xodimlar hurmat taxtasi"**ga 22 ta tashabbuskor xodimlarning rangli fotosurati o'rnatilgan tartibda ilib qo'yildi.

Statistika organlari tizimida xodimlarning ish faoliyati bilan bog'liq muammolarini o'rganish va duch kelgan korrupsiyaviy omillar yuzasidan shaxsini sir tutgan holda xabar berishni yo'lga qo'yish maqsadida barcha xududiy statistika

boshqarmalari ma'muriy binosida "Adolat qutisi" yoki "Murojaatlar qutisi" joriy etilib, **har 15 kunda** dalolatnoma asosida tekshirilishi va bu bo'yicha Milliy statistika qo'mitasiga doimiy ravishda ma'lumot berib borilishi yo'lga qo'yildi.

Joriy yilning I-choragi davomida 130 nafar xodimlar umumiy malaka o'quv kurslarida qatnashishdi, ushbu kurslar davomida korrupsiyaga qarshi murosasiz ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida 30 nafar xodimlarga 12 soatlik maxsus modulli o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi. Ushbi oquv mashg'ulotlari davomida xodimlarni korrupsiyaviy holatlarga nisbatan murosasiz ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan 300 dan ortiq banner, flayer, buklet, plakat va boshqa ko'rgazmali materiallar tarqatildi.

Qo'mitaning har bir rahbar va xodimlari sohada korrupsion holatlarni oldini olish va unga chek qo'yish uchun o'zlarini doimo mas'ul ekanliklarini anglab yetishlari lozim.

Shu fursatdan foydalanib, statistika organlari xodimlari o'z faoliyatida doimo korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillariga rioya qilishga, barcha xodimlarni mehnat faoliyatida korrupsion holatlarga duch kelgan taqdirda qonuniy xatti-harakatlarni amalga oshirishga chorlab qolaman.

Hurmat bilan,

Milliy statistika qo'mitasi raisi

B.S. Hamrayev